

KASBIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Abdunazarova Xamidaxon Nosirjonovna

Farg'ona yuridik texnikumi

"Mutaxassislik fanlari" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17592341>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan mamlakatimizda o'rta bo'g'in professional kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar, mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlar xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, o'rta bo'g'in, agentlik, malakali kadrlar, mehnat bozori, xorijiy dastur, akademik mustaqillik.

Аннотация. В данной статье автор излагает свои мысли о реформах, осуществляемых в нашей стране по совершенствованию системы подготовки профессиональных кадров среднего звена, подготовке квалифицированных специалистов, отвечающих потребностям рынка труда, а также внедрению международных образовательных программ.

Ключевые слова: профессиональное образование, среднее звено, агентство, квалифицированные кадры, рынок труда, зарубежная программа, академическая независимость.

Abstract. In this article, the author expresses his thoughts on the reforms being implemented in our country to improve the system of training mid-level professional personnel, the training of qualified specialists who meet the needs of the labor market, and the implementation of international educational programs.

Key concepts: vocational education, middle level, agency, qualified personnel, labor market, foreign program, academic independence.

Ma'lumki, yurtimizda olib borilayotgan tizimli islohotlarning maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi inson, uning barkamol rivojlanishi va farovonligini ta'minlash, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar hamda samarali mexanizmlarni yaratishga qaratilgan.

Ushbu oldimizga qo'yilgan yuksak maqsadlarga erishish, jamiyatni rivojlantirish, taraqqiyot va kelajak yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasi – bir so'z bilan aytganda, bularning barchasi, bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan masala, yuqori malakali kadrlar, yetuk mutaxassislar tayyorlash muammosi bilan uzviy bog'liq ekanligi tabiiy.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda o'rta bo'g'in professional kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlashni yaxshilash va mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirish borasida muhim qadam bo'lganligini e'tirof etish lozim.

Hujjatda kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish va uning barcha darajalari bo'yicha kadrlar

tayyorlaydigan ko'p tarmoqli o'quv muassasalari tizimini joriy etish, kasbiy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish, o'quv jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, kasbiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus elektron platforma ishlab chiqish kabilar ko'rsatilgan. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, kasbiy ta'lim tizimida amaliyotning samaradorligini oshirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali o'quv dasturlari ishlab chiqish, texnologiyalarni qo'llash jadallashtiriladi.¹

Farmonda ta'lim muassasalari hamda xususiy sektor o'rtasida samarali, tizimli hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa o'z navbatida, xususiy sektorning ta'lim jarayonidagi ishtirokida, ya'ni kadrlar tayyorlash masalasida, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni tadbiq qilishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida moliyaviy resurslar ajratilishi, infratuzilma hamda shart-sharoitlarning yaratilishi, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va o'quvchilarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashning qo'llab-quvvatlanishi ijobiy samara berayotganligini yoshlarimizning mahalliy hamda xalqaro miqyosda eirishayotgan yutuqlaridan ham ham ko'rib turibmiz. Zero, xalqaro tajribada mavjud samarali yondashuvlarni milliy ta'lim tizimga tezroq moslashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy ta'lim faqatgina malakali ishchilar tayyorlashga qaratilgan bo'lib qolmay, balki milliy iqtisodiyotning o'sishi, innovatsion rivojlanish va mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlashda ham yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

Joriy yilning 8-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezident rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlarga muvofiq kasbiy ta'lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta'minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash tizimini isloh qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan Kasbiy ta'lim agentligi tashkil etildi.

Kasbiy ta'lim agentligining vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berildi²:

- texnikumlar faoliyatini muvofiqlashtirish va kasbiy ta'lim sohasini boshqarishga mas'ul bo'ladi;
- kasbiy ta'lim dasturlari mazmuni, malaka darajalari, o'qitishning minimal muddatlari, bitiruvchilar bilimni baholash mezonlari hamda o'quv-metodik ta'minotga talablarni belgilaydi.
- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan "vaucher" tizimi bilan qamrab olinmagan shaxslarni kasbga o'qitadi.
- Migratsiya agentligining xorijiy ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib bergan buyurtmalari asosida fuqarolarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitadi.

Kasbiy ta'lim faoliyatini davlat ta'lim standartlari asosida tashkil qilgan texnikumlar va o'quv kurslari bitiruvchilariga davlat namunasidagi hujjat (diplom, sertifikat) Agentlik tomonidan beriladi.

¹ L.Bozorov. Kasbiy ta'limni rivojlantirish — taraqqiyotning o'ziga xos tayanchi. <https://yuz.uz/news/kasbiy-talimni-rivojlantirish--taraqqiyotning-oziga-xos-tayanchi>.

² <https://sputniknews.uz/20251025/kasbiy-talim-agentligi-tashkil-etildi-52971019.html>

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari raisligida Kasbiy ta‘limni rivojlantirish hududiy tadbirkorlar kengashi tashkil etiladi.

Kengash tarkibi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi hamda uning tarkibiga hududdagi yirik tadbirkorlik subyektlari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar, vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalari rahbarlari kiritiladi.

Ular biznes, davlat va ta‘lim sohalarida hamkorlikni kuchaytiradi, mahalliy ehtiyojga mos kasbiy dasturlari ishlab chiqishga ko‘maklashadi. Ushbu islohotlar natijasida kasbiy ta‘lim tizimida barqaror boshqaruv, yagona standartlar hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa aholi bandligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

2027-yil 1-yanvardan iqtisodiyot tarmoqlaridagi ish o‘rinlariga bosqichma-bosqich Milliy malaka ramkasining tegishli darajasiga mos diplom (malaka sertifikatiga) ega xodimlarni ishga qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

So‘zimiz yakunida aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan maqsad va yo‘nalishlar xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashgan holda mamlakatimizda kasbiy ta‘limni rivojlantirish va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan kadrlar tayyorlashda muhim qadamlar qo‘yilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrda “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/7166588>.
4. <https://sputniknews.uz/20251025/kasbiy-talim-agentligi-tashkil-etildi-52971019.html>
5. O‘zbekistonda Kasbiy ta‘lim agentligi tashkil etiladi. <https://www.gazeta.uz/uz/2025/09/09/agentlik/>.
6. L.Bozorov. Kasbiy ta‘limni rivojlantirish — taraqqiyotning o‘ziga xos tayanchi. <https://yuz.uz/news/kasbiy-talimni-rivojlantirish--taraqqiyotning-oziga-xos-tayanchi>.